

BOLALARGA QARATILGAN IJTIMOIIY ISHNING ETIK TAMOIYILLARI

Abdusalomov Muhridin Shokirjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Gmail: abdusalomovmuhridin549@gmail.com

Kalit so'zlar: bolalar bilan ishlash, maqsad va vazifalar, me'yoriy-huquqiy asoslari, konvensiya, bilim, malaka, tajriba.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ish xodimi keng qamrovli turli tuman muammolar bilan shug'ullanishi va ular orasida ijtimoiy chetlatilgan, ajratilgan insonlar va jamiyat hayotida xavfli guruh insonlarini birlashtirish; o'zlarini mustaqil himoya qila olmaydigan insonlar yoki insonlar guruhlari (bolalar, yoshlar, nogironlar, psixik kasalliklari bor insonlar va shu kabilar)ga yordam ko'rsatish va himoyalash; xizmatlar va resurslarni olishni o'zlari amalga oshira olmaydigan insonlar yoki insonlar guruhlari yordam ko'rsatish va o'qitish kabilar yoritilgan.

Абстрактный

В данной статье рассматривается широкий спектр проблем, с которыми могут столкнуться социальные работники, работающие с детьми, включая интеграцию социально исключенных, изолированных и находящихся в группе риска групп в общество; оказание поддержки и защиты отдельным лицам или группам лиц, которые не в состоянии защитить себя сами (дети, подростки, люди с инвалидностью, люди с психическими заболеваниями и т. д.); а также оказание поддержки и обучение отдельным лицам или группам лиц, которые не могут самостоятельно получить доступ к услугам и ресурсам.

Abstract

This article discusses the wide range of issues that social workers working with children may face, including integrating socially excluded, isolated, and at-risk groups into society; providing support and protection to individuals or groups of individuals who are unable to protect themselves (children, youth, people with disabilities, people with mental illness, etc.); and providing support and education to individuals or groups of individuals who are unable to access services and resources on their own.

Bolalar bilan ishlaydigan ijtimoiy ish xodimi keng qamrovli turli tuman muammolar bilan shugʻullanadi. Xususan, ular orasida shafqatsiz va eʼtiborsiz munosabatlarni boshdan kechirgan bolani himoyalash; ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni joylashtirish (misol uchun, farzandlikka olish, bolalarga foster vasiylik qilish); oilada turli keskin vaziyatlarda bolaga yordam koʻrsatish (misol uchun, turar joyini oʻzgartirish, oila aʼzosining vafoti, tabiiy ofatni boshdan kechirish va boshqalar); nogiron bolalar va ularning oilalari bilan ishlash; xulqida qiyinchiliklar boʻlgan yoki ijtimoiy zararli axloqli bolalar bilan ishlash asosiy ishlar hisoblanadi. Shunday qilib, bolalar ijtimoiy ish xodimi turli xildagi muammolar bilan ishlaydi. Odatda, mijozning bir muammosi bilan shugʻullanib borar ekan ijtimoiy ish xodimi yana bir qator aloqador muammolarga duch keladi. Misol uchun, bolalarga eʼtiborsizlik koʻpincha ota-onasi (yoki ota-onasidan birining) ichkilikbozlikka berilganligi bilan bogʻliq boʻladi; bolaning murakkab xulqi aslida oilaviy, koʻpincha er-xotinlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning buzilganligi sababli boʻladi va shu kabilar. Shunday holatlarga duch kelib, oʻz mijozlariga ularni hal qilishda yordam koʻrsatib bolalar va oilalar bilan ishlaydigan ijtimoiy xodimlar, birinchi navbatda, bolaning manfaatlarini taʼminlashga amal qilib boradilar.

Dunyoda “bolalarni himoya qilish” degan tushuncha bor. Albatta, buni global miqyosdagi umuminsoniy masala sifatida qabul qilamiz. Yaʼni ochlikdan, ommaviy epidemiyalardan, urush harakatlari oqibatlaridan, axloqsiz zoʻravonliklardan himoya qilishga xalqaro tashkilotlardan tortib har bir davlat va har bir sogʻlom fikrlovchi kishilarni ishidir¹. Negaki, bolalarni himoya qilish keng qamrovli va dolzarb masalalar hisoblanadi.

¹ <http://sirdaryo.adliya.uz/sirdaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=26041>

Bu borada “zamonaviy dunyoda jahon hamjamiyati bolalarni ijtimoiy himoya qilish, bolalik dunyosini yaxshilashga qaratilgan keng miqyosdagi samarali tadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O‘zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo‘lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikda bolalarning huquq va manfaatlariga, shuningdek, ularning himoyasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Har bir bola olamning bir parchasi, uning qalbi va ongidagi ob-havo butun bashariyat hayotining ob-havosini belgilaydi, bolaning biror millat, mamlakatga mansubligi nuqtayi nazaridan qarasak, bola o‘sha millat, o‘sha mamlakatning bir parchasidir. Shu boisdan mazkur sohada bir qator islohotlar amalga oshirildi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni (2017), 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Aholining kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4782-sonli (2017) qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2018) Farmoni kabi me’yoriy hujjatlar mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun institutsional asos sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ijtimoiy xodimlar bolalar va ularning oilalariga yordam ko‘rsatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi biror-bir tashkilotda ishlar ekanlar ularga biriktirilgan ishlar ma’lum sonini bajarib boradi. Ushbu holatda u har bir aniq bir holatni boshqaruvchi keys-menejer² rolini bajaradi: baholaydi va zarur bo‘lgan holatlarda boshqa xizmatlarga yo‘naltiradi, ularga aralashadi, oilaga kuchli tomonlarini aniqlash hamda resurslarni izlashni amalga oshirishga yordam ko‘rsatadi, oila a’zolari va

²«Ижтимоий ходимларнинг роллари ва вазифалари» мақоласидаги роллар рўйхатидан фойдаланилган. «Ижтимоий иш асослари: назария ва амалиёт» тренинги бўйича хрестоматия. Инглиз тилидан таржима «Ўзбекистонда ижтимоий иш соҳасида ривожланишни илгари суриш» лойиҳаси доирасида амалга оширилган. РБИММ-ЮНИСЕФ, 2006.

ularning atrofida gilar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, ular bilan hamkorlikda harakatlar rejasini aniqlaydi, ularni amalga oshirilishini kuzatib boradi va aralashish samaradorligini baholaydi va shu kabilar. Agar ijtimoiy xodim oilalarda shafqatsiz va e’tiborsiz munosabatlarini boshdan o‘tkazgan yoki ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ishlashi kerak bo‘lsa, bu holda ularning vazifasi shunday bolalarni himoyalash va qarindoshlari, foster oilalariga joylashtirish hisoblanadi. Agar oilaga joylashtirish shakllarining birortasi ham mumkin bo‘lmasa, unda bolalarni institutsional muassasalarga vaqtinchalik joylashtirish bilan shug‘ullanadilar. Shunday qilib, keys-menejer sifatida ijtimoiy ish xodimining asosiy vazifasi bola va uning oilasi bilan bog‘liq unga tushgan ish yoki hodisani kelib tushishidan to yopilishiga qadar olib borish hisoblanadi. Bir vaqtning o‘zida olib borilishi mumkin bo‘lgan ishlar soni ishning murakkabligi va tashkilotning ichki qoidalariga bog‘liq bo‘ladi.

Keys-menejer rolini bajarib borar ekan, ijtimoiy ish xodimi qator boshqa vazifalarni ham bajarib boradi.

Ijtimoiy ish xodimi – ijtimoiy xizmatlar vositachisi sifatida. Agar baholash amalga oshirilganidan so‘ng bolaga/oilaga qo‘shimcha xizmatlar (tibbiy, yuridik, psixologik, ta’lim va shu kabilar) ko‘rsatilishi zarurligi aniqlansa, ijtimoiy ish xodim uni tegishli xizmatlarga yo‘naltirishi mumkin. Shunday holatda ijtimoiy ish xodimi mijozga yaqin bo‘lgan tumanda taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar “bozorini” yaxshi bilishi kerak. Bu ijtimoiy xodimi qo‘li ostida har doim ushbu tumanda faoliyat yurituvchi ijtimoiy xizmat ham davlat, ham jamoatchilik tashkilotlari haqidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerakligini anglatadi. Misol uchun, agar nogironlikka ega bo‘lgan bolali oila bilan ishlash davomida ota-onasi faqatgina taqdim etilayotgan ta’lim xizmatlari yetishmasligi sababli bolani ixtisoslashtirilgan internatga bermoqchi ekanliklari aniqlansa, unda ijtimoiy ish xodimi ularni, misol uchun, nogiron insonlarga qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi jamoatchilik tashkilotlari bilan bog‘lashi mumkin. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar oilaga nogiron oila a’zosini kasbiy ta’lim berish va ishga joylashtirish xizmatlarini ham taqdim etishlari mumkin. Vositachi rolini bajarib ijtimoiy xodim bir tomondan o‘z mijozlari uchun jamiyatda mavjud xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Boshqa tomondan u bolalar va ularning oilalariga majmuaviy yordam ko'rsatish maqsadida turli tashkilotlar va xizmatlarning o'zaro aloqalarida o'z ifodasini topuvchi mul'tiagentlik yondashuvini rivojlantiradi, shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini muvofiqlashtiruvchi markazi hisoblanib qoladi.

Moslashish ko'nikmalarini o'rgatish roli. Ushbu rolni ijtimoiy ish xodimi, misol uchun, mustaqil hayot boshlashlari kerak bo'lgan institutsional muassasalarning bitiruvchilariga yordam ko'rsatish vaziyatlarida bajaradi. Ushbu holatda ijtimoiy ish xodimi ularning hayot ko'nikmalari, ro'zg'or xarajatlari, munosabatlar ko'nikmalari, ish izlash va boshqalarga, umuman olganda, jamiyatda o'z o'rnini muvaffaqiyatli egallashga va hayotiy qiyinchiliklarni o'zlari yengishga o'rganib olishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga o'rgatadi.

Ijtimoiy ish xodimi amalga oshiradigan ishlardan maslahatchi roli psixolog roliga eng yaqin bo'lsa kerak. Biroq mana shu ikki kasblar – ijtimoiy ish va psixologiya – o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Ushbu tafovut mijoz bilan ishlashning psixologik usullari individual yondashuvga asoslangan bo'lib, unda funksiyalari buzilishi sabablari shaxsning o'zidan yoki insonning psixik rivojlanishidan izlanadi. Ijtimoiy ishda esa mijoz bilan ishlashda “inson muhitda” tamoyili asosiy hisoblanadi va faoliyatidagi buzilishlar sabablari individumdan tashqarida bo'ladi yoki hech bo'lmaganda, ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv ijtimoiy ish xodimning roli – ijtimoiy o'zgarishlar agenti roli bilan amalga oshiriladi. Bu yerda ekotizimli model' asosiy hisoblanadi, unga binoan inson o'z o'zidan alohida qaralmaydi, balki ijtimoiy atrof-muhitda bo'lgan inson kabi qaraladi, bunda oila, yaqin insonlar, turli ijtimoiy institutlar (misol uchun, maktab), mahalla, ijtimoiy xizmatlar va shu kabilar atrof-muhit deb tushuniladi. Shunday qilib, ekologik ko'rinish umumiy ijtimoiy mazmunining oila yoki bola faoliyatidagi mumkin bo'lgan buzilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv xavf ostida bo'lgan oilalar, nogiron bolalar va boshqa zaif guruhlariga jamiyat tomonidan salbiy munosabatning o'zi ularning zaifliklari sababi sifatida qaralishi mumkin. Bu, o'z navbatida, o'z ehtiyojlarini qondirishlari uchun ularning imkoniyatlarini pasaytiradi. Mana shu mazmunda munosabatlarning o'zgarishi va salbiy fikrlardan voz kechish oila va

bolaning farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy ish xodimlar ijtimoiy o'zgarishlar agentlari hisoblanib, zaif va marginal guruh insonlariga nisbatan jamiyatda mavjud noto'g'ri va odatiy fikrlarni pasaytirish maqsadida reklama kompaniyalari va ta'lim dasturlari orqali jamiyatning xabardorligini oshirishga intiladilar.

Ijtimoiy ish xodimining ko'rib chiqilgan vazifalari bir-biri bilan yaqin aloqadadir. Masalan, keys-menejer rolini bajarar ekan ijtimoiy xodim bir vaqtning o'zida ham maslahatchi, ham mumkin bo'lgan ijtimoiy xizmatlarni topishda vositachi, o'z mijozlarining jamiyatga moslashishlari va o'z o'rinlarini egallashlari uchun ko'nikmalar o'qituvchisi hisoblanadi. Umuman olganda, aytib o'tilgan rollar va vazifalarni bajarar ekan ijtimoiy ish xodimi jamiyatda ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarga yordam ko'rsatadi.

Ijtimoiy ish xodimi kasbi o'zining mazmuni bo'yicha umuman yangi hisoblanmaydi, chunki bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida ishlovchi ko'pchilik amaliyotchilar ijtimoiy ish xodimining u yoki bu vazifalarini bajaradilar. Biroq ularni kasbiy qayta tayyorlash talab etiladi, bu tayyorgarlik davomida ijtimoiy ish nazariyalari, metodlari, qadriyatlari va etika tamoyillariga asoslangan yangi bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi. Ijtimoiy ish xodimining alohida belgilangan rollari va vazifalarini anglab yetish hamda o'zlashtirish orqali bolalar va oilalar bilan ishlashda ma'lum tajribaga ega amaliyotchilar yangi mahorat mutanosibligi(professional birligi)ni shakllantirish talab etiladi.

Ijtimoiy xizmat xodimlarining asosiy vazifasi ijtimoiy ishning ijtimoiy psixologik, ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa metodlar yordamida me'yoriy hayot faoliyatiga xalaqit beruvchi muammolarni anglashda oila a'zolariga, xususan bolalarga (yoshi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar) yordam berishdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy ish va xizmatlarni tashkil etishda hududiy joylashuv hamda o'ziga xos etnik-milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda "hududiy ijtimoiy ish va xizmat"larni shakllantirish va rivojlantirish lozim. Bunda barcha muhtoj (kattalar va bolalar)ga kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatish hisobga olinadi. Bu hududiy ijtimoiy ish va xizmatlariga ijtimoiy struktura muassasalari, ijtimoiy xizmatlar ishini tashkil etish va boshqarish organlari, o'quv va ilmiy tadqiqot muassasalarining faoliyatini

ham kiritish mumkin. Bu hududiy ijtimoiy ish xodimlari konkret shahar yoki qishloq tumani hududida faoliyat yuritayotgani uchun aholiga maksimal yaqinlashadi va u yerda muammolarni bevosita o'z ko'zlari bilan ko'rishi, ularni samarali bartaraf etishda faol ishtirok etishi hisobga olinadi.

Hududiy ijtimoiy ish va xizmatlar strukturasi quyidagi ixtisoslashgan hududiy markazlardan tashkil topmog'i lozim:

- ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktik ishlar, konsultativ yordam, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari, jumladan, amaliy yordam ko'rsatuvchi, ko'chma kompleks brigadalar; shoshilinch psixologik yordam xizmati; yuridik va psixologik-pedagogik konsul'tatsiya; tanishish xizmatlari; bolalar va onalarga kunduzgi boshpana berish bo'limlari va boshqalarni tashkil etish;

- oiladagi ziddiyatni bartaraf etishda yordam beruvchi, oilaviy, er-xotin, ota-onalar muloqoti doirasida aholining psixologik madaniyatini oshirishga; bolalarni tarbiyalashda, emotsional va psixik tanazzulni bartaraf etishda qiynalayotgan oilalarga yordam beruvchi; turli xavfli vaziyatlarda shaxslarga malakali psixologik-pedagogik yordamni ta'minlashga yordam beruvchi oila va bolalarga psixologik-pedagogik yordam markazlarini tashkil etish;

- tel'yefon orqali shoshilinch psixologik yordam xizmati (ishonch tel'yefoni)ni tashkil etish, uning asosiy vazifasi, oila a'zolarining tajavuzkorlik darajasini psixologik pasaytirishdan iborat bo'ladi;

- voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitatsion markazlar tashkil etish. Bu markazning asosiy vazifasi hayotda tanazzulli vaziyatga tushib qolganlarga ijtimoiy va tibbiy psixologik yordam va madad berish. Voyaga yetmaganlar o'zlarining reabilitatsiyasi uchun zarur bo'lgan vaqt mobaynida Markazga qatnashlari va u yerda bu vaqt mobaynida o'zlari uchun zarur bo'lgan shoshilinch ijtimoiy yordam, tibbiy-psixologik diagnostika va korreksiya, bolalar va o'smirlarni ijtimoiy adaptatsiya va ijtimoiy reabilitatsiya qilish xizmatlaridan ba'zi hollarda statsionar sharoitdagi boshpana xizmatlaridan foydalanishlari mumkin;

– bolalar va o‘smirlar ijtimoiy boshpana markazlarini tashkil etish. Bu markaz qarovsiz qolgan bolalar va o‘smirlarni qutqarib qolish uchun vaqtincha boshpanalar bilan ta’minlaydi, ularga tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatadi, bolalar hayotini yo‘lga qo‘yish masalalarini hal etish maqsadida tuziladi;

– imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun reabilitatsion markazlar tashkil etish. Bu markazning asosiy maqsadi jismoniy va aqliy kamchiliklari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy adaptatsiyalash, unda hayotga, jamiyatga, oilaga kompleks tibbiy, ijtimoiy, pedagogik-psixologik va boshqa tadbirlar yordamida ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam berishdir.

Barcha sohalarida bo‘lgani kabi ijtimoiy ishda ham bilim faoliyat mahsuldorligini ta’minlovchi asosdir. Shu sababli, bilimning quyidagi tashxis natijalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- ♦ bilimning chuqurligi;
- ♦ bilimning moslashuvchanligi;
- ♦ bilimning mustahkamligi;
- ♦ bilimning amaliy ahamiyatga ega ekanligi, kabilarni tashxisiy belgilar deb ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, hayotiy tajriba har qanday vaziyatning e’tiborsiz qoldirilmasligini taqozo etmoqda. Va u bilan tanqidiy vaziyat darajasida kurashmoq kerak. Bu holat: **“Eng qiyin vaziyatdan chiqa olgan inson donishmand emas, balki o‘sha vaziyatga tushmagan inson donishmandir”**, – degan dono fikrni yodga soladi.

Ta’kidlash lozimki, kasbiy layoqatlikning tarkibiy qismlarini muloqot, moslashuvchanlik, ko‘nikma, bilim kabilar tashkil etib, mutaxassisni kasbiy layoqatini baholashda (ekspertli baholash) asosiy omillar sifatida quyidagilarni inobatga olish lozim.

- mutaxassisning ixtisosligi,
- kasbiy ma’lumoti (diplom),
- kasbiy malakaga egaligi,
- umumiy mehnat tajribasi va staji,
- kasbiy stereotipi va psixofiziologik holati,

- mehnat sharoiti hamda mehnatga bo'lgan munosabati,
- kasbiy bilimdonligi va kasbiy tayyorgarligi,
- o'z kasbiga sodiqligi va kasbiy faoliyat mahsuli va b.³

Ijtimoiy ishda ham barcha sohalarda bo'lgani muvaffaqiyatga ma'lum davr mobaynida maxsus ko'nikma va malakalarning vujudga kelishi hamda yetarlicha kasbiy va hayotiy tajribalarni egallagan holda erishiladi. Bunda:

Birinchi – murabbiy yoki ustoz sifatida shakllanish jarayonining optant, ya'ni tanlash fazasi davomida mutaxassis kasb tanlash yoki tanlangan kasbini obyektiv va subyektiv omillari ta'sirida kasbini o'zgartirish muammosiga duch keladi. Ushbu fazani boshqa fazalar singari aniq bir vaqt bilan chegaralab bo'lmaydi. Negaki, bu har bir shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga, turmush tarziga bog'liq.

Ikkinchi, ya'ni adept fazasi davomida, inson tanlagan kasbi bilan yashaydi, uni to'liq o'zlashtirgan bo'ladi. Kasb mavqeyiga qarab, ushbu bosqich ko'p-yillar mobaynida yoki qisqa davrda o'zlashtirilishi (masalan, shifokorlik yoki haydovchilik kasbi) mumkin.

Uchinchi – moslashuv fazasi davomida o'quv yurtida ijtimoiy ish mutaxassisni tayyorlash jarayoni qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo'lmasin, u amaliyotga (ishlab chiqarishga) to'g'ridan-to'g'ri mos kelavermasligi mumkin. Shuning uchun yosh mutaxassis bu davr oralig'ida xulqi (maishiy, kasbiy), hayot tarzini yanada barkamollik sari yo'naltirishi lozim bo'ladi.

To'rtinchi – internal fazasi davomida ijtimoiy ish mutaxassisi tajribali bo'lib, o'z ishini sevib, kasbiy vazifalarni ishonchli mustaqil bajara oladi. Bu kasbiy muvaffaqiyatning ko'rsatkichlari uning hamkasblari tomonidan ham e'tirof etilishi lozim, bu, albatta, o'sha jamoaning ma'naviy muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchi – mohirlik fazasi davomida ijtimoiy ish mutaxassisi eng oson vazifalarni ham, hamkasblari bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan eng murakkab vazifalarni ham bajara oladi. U professionallik, universallik asosida o'z malakasi, maxsus sifatlari bilan ajralib turadi.

³ Тизимли таҳлил: назария ва амалиёт масалалари / Монография. Р.Самаров ва бошқалар. – Тошкент, 2017. - 207 б.

Ijtimoiy ishda esa mijoz bilan ishlashda “inson muhitda” tamoyili asosiy hisoblanadi va faoliyatidagi buzilishlar sabablari individumdan tashqarida bo‘ladi yoki hech bo‘lmaganda, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv ijtimoiy ish xodimning roli – ijtimoiy o‘zgarishlar agenti roli bilan amalga oshiriladi. Bu yerda ekotizimli model’ asosiy hisoblanadi, unga binoan inson o‘z o‘zidan alohida qaralmaydi, balki ijtimoiy atrof-muhitda bo‘lgan inson kabi qaraladi, bunda oila, yaqin insonlar, turli ijtimoiy institutlar (misol uchun, maktab), mahalla, ijtimoiy xizmatlar va shu kabilar atrof-muhit deb tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga qaratilgan ijtimoiy ish faoliyatida etik tamoyillarga rioya qilish bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning eng muhim omillaridan biridir. Ijtimoiy ish jarayonida inson qadr-qimmatini hurmat qilish, adolat, maxfiylik, professional mas’uliyat, zarar yetkazmaslik va bolaning eng yaxshi manfaatlarini ustuvor qo‘yish kabi etik prinsiplarga amal qilish mutaxassis faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Ayniqsa, bolalar bilan ishlashda ularning yoshi, psixologik holati va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo‘llash zarur hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda bolalarni himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy ish xodimlarining etik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos professional faoliyatni yo‘lga qo‘yish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois, bolalarga qaratilgan ijtimoiy ishning etik tamoyillarini amaliyotga izchil tatbiq etish nafaqat har bir bolaning farovonligini ta’minlashga, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Natijada, etik me’yorlarga asoslangan ijtimoiy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy himoyasi va kelajakdagi muvaffaqiyatli hayoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyolar

- 1.Алексеева В.С.Ўзбекистонда ижтимоий ишнинг институт сифатида шаклланиши // Социол.фанлари бўйича фалс.д-ри (PhD) дисс. автореферати.- Тошкент, 2018. – Б. 15-16.

2. «Ижтимоий иш асослари: назария ва амалиёт» тренинги бўйича хрестоматия. Инглиз тилидан таржима «Ўзбекистонда ижтимоий иш соҳасида ривожланишни илгари суриш» лойиҳаси доирасида амалга оширилган. РБИММ-ЮНИСЕФ, 2006.
3. Латипова Н.М. Ўзбекистонда оила ва болаларни ижтимоий ҳимоя қилиш // Социол.ф. бўйича фан д-ри (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент, 2020.
4. Тизимли таҳлил: назария ва амалиёт масалалари / Монография. Р.Самаров ва бошқалар. – Тошкент, 2017. - 207 б.
5. <http://sirdaryo.adliya.uz/sirdaryo/uz/publikatsii/detail.php?ID=26041>